



ALISHER NAVOIYNING XAMSA ASARIDAGI “FARHOD VA SHIRIN MUNOSABATLAR”; FIDOYILIK VA SAMIMIY MUHABBAT TIMSOLI.

Abobakirova Xayriniso

FarDU talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida tasvirlangan 2asosiy qahramon Farhod va Shirinning o’zaro munosabatlari tahlil qilinadi. Asarda ularning muhabbati manfaatdan holi, pokiza va fidoyilikka asoslangan ruhiy yaqinlik sifatida talqin qilinadi. Farhodning mashaqqatli yo’lda namoyon bo’lgan qat’iyati va jon fido qilishi, shuningdek Shirinning sadoqati, matonati va muhabbatga vafodorligi dostonning ma’naviy negizini tashkil etadi. Maqolada ushbu obrazlar orqali navoiy targ’ib qilgan ideal muhabbat tushunchasi, uning axloqiy estetik ahamiyati yoritiladi.

Kalit so’zlar: Farhod, Shirin, muhabbat, fidoyilik, Xamsa, Alisher Navoiy, sharq adabiyoti, qadriyatlar.

Sharq adabiyotida muhabbat mavzusidoimo alohida e’tibor bilan tasvirlanib, insoniy fazilatlarning eng go’zal ko’rinishi sifatida aynan oshiq va mashuqlarda namoyon bo’ladi. Aisher Navoiyning ham “Xamsa” asaridagi”Farhod va Shirin” dostoni orqali yuksak ma’naviyat bilan barkamol ikki oshiqning qalbiy olamini betkror badiiy mahorat bilan aks ettiradi. Farhod va Shirin sevgisini manfaatdan holi , samimiy, fidoiy va ruhiy uyg’unlikka asoslangan ideal sof muhabbat sifatida gavdalanadi.

Farhodni Shiringa bo’lgan muhabbati so’z yoki va’dalardan iborat emas, balki harakatlarda namoyon bo’ladi. Sevgilisini xursand qilish uchun



tog'ni kesib, suv kelishi uchun ariq qaziydi, bu yo'lda ancha mashaqqatlar chekadi.

Farhodning bu harakatlariga bevosita guvoh bo'lgan kitobxon Farhodni qanchalik jasoratli, qo'rqqan, qat'iyati va muhabbati yo'lida hech qanday to'siqlarni pisand qilmasligini ko'rishimiz mumkin. Uning bu harakati samimiy muhabbatning badiiy ifodasi, insoniy fidoiyligining eng yuksak darajasidir.

Shirinning obrazi ham bu munosabatlarda juda muhim. U nafaqat go'zalligi balki, ma'naviy pokligi va sadoqati bilan ajralib turadi. Saroydagi bosimlar, fitnalar turli tashqi to'siqlarga qaramay, Shirin Farhodga bo'lgan muhabbatidan voz kechmaydi. Shuning uchun Shirin qiyofasi Navoiy ijodida matonatli, pokiza va muhabbatiga sevgisiga vafodor ayol timsoli sifatida gavdalanadi. Uning Farhodga bo'lgan ishonchi oshiqning fidoyiligini yanada mustahkamlaydi va dostonning ichki ruhini boyitadi.

Farhod va Shirinning munosabatlari bir-birini to'ldiruvchi ikki fazilat fidoyilik va sadoqat uyg'unligidan iborat. Farhodning jasorat Shirinning matonati bilan uyg'unlashadi. Bu uyg'unlik orqali Navoiy insoniy muhabbatning naqadar yuksak, sof va axloqiy asosga ega bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Ularning sevgisida hirs, nafs, mansab kabi unsurlar mavjud emas; aksincha, rugiy yaqinlik, poklik va o'ziga xos manaviy musaffolik bor

Xulosa qilib aytganda, Farhod va Shirin munosabatlari Alisher Navoiy ijodida haqiqiy muhabbatning ideal modeli sifatida talqin etiladi. Ularning sevgisi insonni yuksaltiradi, unga kuch quvvat beradi va ma'naviy barkamollikka yetaklaydi. Shu boisdan bu qissa nafaqat adabiy me'ros sifatida, balki insoniy fazilatlarini tarbiyalovchi manaviy manbaa sifatida ham qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:





1. Alisher Navoiy Xamsa,-Toshkent G'afur g'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
2. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2020
3. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin (To'liq nasriy tabdili). Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.

